

Haqberdiyev Rustamjon Shodmon o'g'li,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti,
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
conniggulden42@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0001-7770-3001>

1970–1980-YILLARDA O'ZBEKISTON SSRDA SOG'LIQNI SAQLASH OBEKTLARI QURILISHI VA BUTUNITTIFOQ KOMMUNISTIK SHANBALIKLAR MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1976–1980 yillarda butunittifoq kommunistik shanbaliklari orqali to'plangan mablag'lardan foydalanish va sog'liqni saqlash ob'ektlari qurilishida yuzaga kelgan muammolar tahlil qilingan. Maqolada qiyosiy yondashuv asosida 1966–1970 va 1971–1975 yillarga mo'ljallangan rejalar, 1976–1980 yillardagi qurilish ko'rsatkichlari hamda Samarqand viloyati misolidagi holatlar solishtirib ko'rib chiqilgan. Natijalar reja va amaliy ijro o'rtasidagi tafovutlar, tashkiliy va moliyaviy qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kommunistik shanbalik, Samarqand viloyati, sog'liqni saqlash ob'ektlari, feldsher-akusherlik punkti, kapital qo'yilmalar, qiyosiy tahlil.

ПРОБЛЕМЫ СТРОИТЕЛЬСТВА ОБЪЕКТОВ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СРЕДСТВ ВСЕСОЮЗНЫХ КОММУНИСТИЧЕСКИХ СУББОТНИКОВ В УЗБЕКСКОЙ ССР В 1970-1980-Е ГОДЫ

Аннотация. В данной статье анализируются проблемы, возникшие при использовании средств, собранных всесоюзными коммунистическими субботниками 1976-1980 гг., и строительстве объектов здравоохранения. В статье анализируются проблемы, возникшие при использовании средств, собранных всесоюзными коммунистическими субботниками 1976-1980 гг., и строительстве объектов здравоохранения. В статье на основе сравнительного подхода рассмотрены планы на 1966-1970 и 1971-1975 годы, показатели строительства на 1976-1980 годы, а также сопоставлены случаи на примере Самаркандской области. Результаты показывают наличие расхождений между планом и практическим выполнением, организационных и финансовых трудностей.

Ключевые слова: коммунистический субботник, Самаркандская область, объекты здравоохранения, фельдшерско-акушерский пункт, капитальные вложения, сравнительный анализ.

PROBLEMS OF THE CONSTRUCTION OF HEALTH FACILITIES IN THE UZBEK SSR IN THE 1970S AND 1980S AND THE USE OF FUNDS FROM ALL-UNION COMMUNIST SATURDAYS

Annotation. This article examines the utilization of funds collected through the All-Union Communist Subbotniks during 1976–1980 and the challenges encountered in the construction of healthcare facilities. Using a comparative approach, the study reviews the five-year plans of 1966–1970 and 1971–1975, as well as the performance indicators of 1976–1980, with special reference to the Samarkand region. The findings highlight discrepancies between planning and actual implementation, revealing organizational and financial difficulties in developing social infrastructure.

Keywords: Communist Subbotnik, Samarkand region, healthcare facilities, feldsher-obstetric station, capital investment, comparative analysis.

1970–1980-yillar O‘zbekiston SSR tarixida ijtimoiy infratuzilmani, xususan, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish jarayonlari bilan ajralib turadi. Bu davrda mamlakatda aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda ishlab chiqarish korxonalarining kengayishi natijasida tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshdi. Shu boisdan sog‘liqni saqlash sohasida zamonaviy davr talablariga javob beruvchi yangi shifoxonalar, poliklinikalar, sanatoriyalar va boshqa tibbiyot muassasalari qurilishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda moliyaviy manbalar muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Xususan, butunittifoq kommunistik shanbaliklar natijasida yig‘ilgan mablag‘lar sog‘liqni saqlash obyektlari qurilishiga yo‘naltirilgan. Biroq ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi, ularni taqsimlashdagi byurokratik to‘siqlar va iqtisodiy nazoratning yetarli emasligi kabi muammolar mazkur davr tarixida muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biri sifatida ko‘tarilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, sovet davrida amalga oshirilgan sog‘liqni saqlash siyosatini tahlil qilish, undagi ijobiy va salbiy tajribalarni o‘rganish bugungi kunda ham tarixshunoslik va ijtimoiy fanlar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 1970–1980-yillar oralig‘ida qurilgan tibbiyot infratuzilmasining shakllanish mexanizmlari, mablag‘larning manbalari hamda ularning samarali yoki samarasiz ishlatilishi masalalari o‘sha davr iqtisodiy siyosatining mohiyatini ochib berishda muhim manba hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur mavzuni tadqiq etish orqali sovet davrida ijtimoiy sohalarga ajratilgan resurslardan foydalanish amaliyoti, markaz va respublika o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar hamda byurokratik boshqaruv tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish imkoniyati tug‘iladi. Bu esa, tarixiy tajriba asosida zamonaviy O‘zbekiston sharoitida sog‘liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1970-yillar oxirida O‘zbekiston SSRda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Ayniqsa, butunittifoq kommunistik shanbaliklari orqali to‘plangan mablag‘lar ijtimoiy infratuzilmalar, jumladan tibbiy muassasalar qurilishida katta ahamiyat kasb etdi. Biroq rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar bilan amaliy natijalar o‘rtasida jiddiy tafovutlar kuzatilib, qurilish jarayonlarida tashkiliy, moliyaviy va kadrlar bilan bog‘liq qiyinchiliklar yuzaga keldi. Samarqand viloyati misolidagi tahlil ushbu muammolarning hududiy ifodasini ko‘rsatib berishi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur mavzuga oid ilmiy adabiyotlarda asosan 1970–1980 yillarda SSSRdagi ijtimoiy siyosatning umumiy xususiyatlari yoritilgan. Xususan, markaziy rejalashtirish tizimi, kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirish jarayoni va qurilishdagi qiyinchiliklar haqida qator tadqiqotlar mavjud. Biroq, kommunistik shanbalik mablag‘larining sog‘liqni saqlash ob‘yektlari qurilishidagi o‘rni va ayniqsa Samarqand viloyati misolidagi qiyosiy tahlil yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu jihatdan ushbu maqola mavjud ilmiy adabiyotlarni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi. 1966–1970, 1971–1975 va 1976–1980 yillar rejalari hamda ularning amaliy ijrosi arxiv materiallari, rasmiy hisobotlar va statistik ma’lumotlar asosida o‘rganildi. Shuningdek, Samarqand viloyatida feldsher-akusherlik punktlari qurilishi va jihozlanish holati alohida misol sifatida tahlil qilindi.

1966–1970 yillar davomida O‘zbekiston SSR Sovxozlar vazirligi tizimida sog‘liqni saqlash ob‘yektlari qurilishi belgilangan reja ko‘rsatkichlaridan ancha orqada qoldi. Jami besh yillik davr uchun 8706 ming so‘m kapital qo‘yilmalar ajratilishi belgilangan bo‘lsa, amalda bu ko‘rsatkich 5187 ming so‘mni tashkil etdi. Shu tariqa, moliyaviy o‘zlashtirishda 40 foizdan ortiq yetishmovchilik kuzatildi[1].

Shuningdek, bemorxona koykalarini ishga tushirish bo‘yicha ham jiddiy kamchiliklar mavjud bo‘ldi. Besh yillik rejada 1343 koyka mo‘ljallangan bo‘lib, amalda faqat 483 tasi ishga tushirildi. Ya’ni rejaning atigi 36 foizi bajarildi. Masalan, 1966 yilda 170 koyka ishga tushirilishi kerak bo‘lgan bo‘lsa-da, amalda birortasi ham topshirilmadi. 1969 yilda esa 175 koykadan faqat 75 tasi ishga berildi. Faqat 1970 yilda ko‘rsatkichlar rejaga yaqinlashdi: 150 koykadan 135 tasi

18 ishga tushirildi. Bu holat sog'liqni saqlash ob'ektlari qurilishida tashkiliy va moliyaviy muammolar mavjudligini ochib berdi [1].

Shuningdek, 1969 yilda qabul qilingan qarorga ko'ra, Moskvada dunyodagi eng yirik tibbiy ilmiy-tadqiqot hamda davolash-profilaktika muassasasi — Butunittifoq onkologiya markazi qurilishi boshlandi. Bu tibbiyot sohasining strategik yo'nalish sifatida davlat siyosatida muhim ahamiyatga ega ekanligini bildiradi[5].

1971–1975 yillarga mo'ljallangan yangi besh yillik reja esa avvalgi tajribalardan kelib chiqib nisbatan ehtiyotkorlik bilan ishlab chiqildi. Unga ko'ra, jami 6986 ming so'm kapital qo'yilmalar yo'naltirish va 690 koykali bemorxona ishga tushirish rejalashtirildi. Bu raqamlar avvalgi besh yillikdan ancha realistik ko'rinadi. Masalan, 1966–1970 yillarda 1343 koyka rejalashtirilgan bo'lsa, amalda 483 tasi ishga tushirilgan. Yangi rejada esa 690 koyka mo'ljallanib, oldingi natijalarga nisbatan ikki barobarga yaqin ko'proq, biroq amaliy imkoniyatlarga yaqinlashtirilgan ko'rsatkich sifatida baholanishi mumkin[2]. O'zbekiston SSR Vazirlar Soveti tomonidan 1975 yil 30 dekabrda №1366-r sonli farmoyishga muvofiq, 1976 yilda Samarqand viloyatida 125 ta feldsher-akusherlik punktlarini qurish rejalashtirildi. Biroq reja ko'rsatkichlari to'liq ta'minlanmadi: 36 ta punkt qurilishi boshlanib, faqat 8 tasi ishga topshirildi. Bu holat rejalashtirish va amaliy natijalar o'rtasidagi tafovutning keyingi yillarda ham saqlanganini ko'rsatdi [2].

1977 yilda respublika darajasida xo'jalik usuli orqali 151 ta feldsher-akusherlik punkti qurish rejalashtirilib, bir ob'yektning smeta qiymati 20–25 ming so'm atrofida belgilangan. Bu ko'rsatkich qishloq joylarda birlamchi tibbiy xizmatni kuchaytirish, aholini to'g'ridan-to'g'ri tibbiy ko'mak bilan qamrab olish siyosatining amaliy ifodasi edi[3]. 1978 yilga kelib respublika miqyosida davolash muassasalarini yumshoq anjom va yotoq buyumlari bilan ta'minlash uchun 18 631 ming so'm mablag' sarflandi, bu rejaning 100,7 foizini tashkil etdi. Reja rasmiy jihatdan to'liq bajarilgan bo'lsa-da, amaliy natijalarda tafovut kuzatildi: ayrim turdagi yotoq anjomlari va kiyim-kechak yetishmovchilik bilan, boshqalari esa ortiqcha zaxira bilan taqsimlangan. Bu holat Sog'liqni saqlash Vazirligi tasdiqlagan "Yotoq anjomlarini yuritish qo'llanmasi"ga to'liq rioya etilmaganini anglatadi[3].

Shu tariqa, 1976–1978 yillarda Samarqand viloyati va respublikada sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, natijalar rejaviy ko'rsatkichlarning to'la bajarilishiga to'sqinlik qilgan tizimli muammolar bilan chegaralandi. Yangidan ob'yektlar qurish emas, balki rekonstruksiya ishlariga ustuvorlik berilishi ham sohadagi strategik yo'nalishlarni belgilab berdi [3].

O'ninchi besh yillik davrida (1976–1980) butunittifoq kommunistik shanbaliklari orqali jami 1,0 milliard rubl mablag' yig'ildi, bu rejadan 250 million rublga (32%) ko'pdir. Mehnatkashlar tashabbusi bilan yig'ilgan ushbu mablag'lar ijtimoiy infratuzilmalar rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, mazkur mablag'lar hisobiga 31 ming o'rinli shifoxonalar qurilib ishga tushirildi (davlat mablag'lari hisobiga qurilgan umumiy ko'rsatkichning 12%), 123 ming o'rinli maktabgacha ta'lim muassasalari (5%), bir smenada 26 ming qabulga mo'ljallangan poliklinikalar (4%) hamda 8 mingdan ortiq o'quvchi o'rinlari barpo etildi[4]. Shu bilan birga, qurilish jarayonida qator muammolar ham kuzatildi: ob'yektlarni belgilangan muddatlarda topshirmaslik, sifat talablariga to'liq rioya etilmasligi va mablag'larni samarasiz sarflash holatlari qayd etildi. Bu esa ijtimoiy soha infratuzilmalarini rivojlantirish jarayonida tashkiliy va me'yoriy muammolar mavjudligini ko'rsatadi[4].

Biroq, 1976–1980 yillarda shanbalik mablag'laridan foydalanish turli respublikalarda turlicha samara ko'rsatdi. Asosiy fondlarni ishga tushirish bo'yicha reja ko'rsatkichlari ayrim hududlarda juda past darajada bajarildi: Ozarbayjon SSR — 23%, O'zbekiston SSR — 35%, Armaniston SSR — 37%, Turkmaniston SSR — 39%. Bu holat markaziy rejalashtirish bilan mahalliy bajarish o'rtasidagi uzilishlarni, shuningdek qurilishda tashkiliy va texnik qiyinchiliklarni namoyon etdi. Kapital mablag'larni o'zlashtirish ko'rsatkichlari ham qoniqarli bo'lmadi: Turkmaniston SSR — 38%, Ozarbayjon SSR — 53%, O'zbekiston SSR — 62%. Ushbu

raqamlar investisiyalarni o'zlashtirishdagi samarasizlikni va iqtisodiy hamda kadrlar bilan bog'liq qiyinchiliklarni ochib berdi[5].

1976–1980 yillarda butunittifoq kommunistik shanbaliklari orqali yo'naltirilgan mablag'lar sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, qurilish jarayonida qator muammolar mavjud edi. Reja ko'rsatkichlari ko'p hollarda bajarilmagan, moliyaviy o'zlashtirish samarasiz kechgan, ob'ektlarning belgilangan muddatda va sifat talablariga mos holda ishga tushirilishi ta'minlanmagan. Samarqand viloyati misolida ham rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bilan amaliy natijalar o'rtasida jiddiy tafovut kuzatildi. Bu holat ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonida tizimli tashkiliy va iqtisodiy muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'z MA), 837-fond, 41-ro'yxat, 5628-ish, 13-varaq.
2. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'z MA), 837-fond, 41-ro'yxat, 5628-ish, 14-varaq.
3. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'z MA), 837-fond, 41-ro'yxat, 2487-ish, 192-varaq.
4. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'z MA), 837-fond, 41-ro'yxat, 4455-ish, 53-varaq.
5. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'z MA), 837-fond, 41-ro'yxat, 5024-ish, 97-varaq.